




INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



 ICI JOURNALS  
MASTER LIST

 ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
NUMBER  
FOR SERIALS  
PUBLICATIONS

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic  
Resource  
Index  
ResearchBI

 Google Scholar

 open access.nl



## **INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI**

**3-JILD, 3-SON  
2026**

**Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:**



**Ilmij jurnalning rasmiy sayti:**

**[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)**

**O'ZBEKISTON-2026**

**3-JILD, 3-SON | MART - 2026 |**

**+99833 5668868 | [www.innoworld.net](http://www.innoworld.net) | @Anvarbek\_PhD**

**Bo'lajak tarbiyachilarning psixologik kompetentligini shakllantirishda farzand tarbiyasiga oid adabiyotlarni o'qitishning ahamiyati.****Oripova A'lo O'ktam qizi**e-mail: [oripovaaljon@gmail.com](mailto:oripovaaljon@gmail.com) tell number: (95) 129-97-01

**Annotatsiya.** Ushbu keltirilgan maqolada aynan maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talablarni ta'lim va tarbiya jarayoniga qo'yilgan bungi zamonaviy talablar va milliy qadriyat va an'analarni hisobga olgan holda ularning psixologik kompetentligini rivojlantirishda farzand tarbiyasiga oid adabiyotlarni o'qitishning qanchalik ahamiyatli ekanligi borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, hamkorlik, shaxs, psixologik kompetentlik, empatiya, emotsional intellekt, ta'lim va tarbiya, rivojlanish.

**Abstract.** This article discusses the significance of teaching literature on child upbringing in developing the psychological competence of students majoring in Preschool Education. The study considers contemporary requirements for the educational process alongside national values and traditions. It highlights the importance of such literature in enhancing the professional and psychological readiness of future educators to meet modern pedagogical challenges.

**Keywords:** preschool education, educator, pupil (or trainee), cooperation (or collaboration), personality, psychological competence, empathy, emotional intelligence, education and upbringing, development.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значимость обучения литературе по воспитанию детей в развитии психологической компетентности студентов направления "Дошкольное образование". Исследование опирается на современные требования, предъявляемые к процессам обучения и воспитания, а также учитывает национальные ценности и традиции. Автор обосновывает роль педагогической литературы как ключевого фактора формирования профессионально-психологической готовности будущих специалистов.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, воспитанник, сотрудничество, личность, психологическая компетентность, эмпатия, эмоциональный интеллект, обучение и воспитание, развитие.

Barchamizga ma'lumki yaqin yillardan buyon mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha tub islohotlar amalga oshirilib, o'z natija va samarasini berib kelmoqda. 2016-yilga qadar maktabgacha ta'limga qamrov mamlakatimiz bo'ylab 3-7 yosh bolalar orasida 27%ni tashkil etgan bo'lsa hozirda bu ko'rsatgich yillar kesimida o'sib borib 2025-yil sentyabr oyi hisobiga ko'ra 78%ga chiqqanligini aynan maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar natijasi sifatida misol qilib keltirish mumkin[1].

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-sentyabr kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida aynan maktabgacha ta'lim

sohasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi qator masalalarni keltirib o'tdilar :

Bu yil maktabgacha ta'limda o'rinlar sonini 182 mingga ko'paytirish rejalashtirilganligi, ularning 82 mingtasi yangi bog'chalar hissasiga to'g'ri kelishi qolgan 100 ming o'rin eski bog'chalarni ta'mirlash orqali hamda xususiy sektor ishtirokida tashkil etilishi va buning uchun maktabgacha ta'lim qamrovi 80 foizdan past bo'lgan tuman va shaharlarda bo'sh yerlar auksionga chiqarilishi, ularda davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalar qurish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqilishi keltirilib, bunday muassasalarga subsidiya berish, tarbiyachilar maoshini qisman qoplash tartibi joriy qilinishi aytib o'tildi. Bundan tashqari yangi bino, sharoit bilan birga bog'cha xodimlarining salohiyati ham shunga yarasha yuqori bo'lishi kerakligi ta'kidlanib, yoz mavsumida Respublikamiz bo'ylab 118 ming nafar tarbiyachining malakasi oshirilganligi va lekin bu hali kam va davlat bog'chalaridagi tarbiyachilarning 38 foizi, xususiylarida esa 24 foizi oliy ma'lumotli kadrlarni tashkil etishi aytib o'tildi. Shu bois, yangi o'quv yilidan o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachilar uchun 5 kun ishlab, 1 kun o'qiydigan bakalavr ta'lim shakli joriy qilinishi va bu orqali bog'chalarga har yili qariyb 10 ming oliy ma'lumotli mutaxassis kirib kelishi va Shuningdek kelasi yili har bir viloyatda bog'cha tarbiyachilarining pedagogik mahoratini oshirishga metodik ko'maklashuvchi “Yangi avlod” bog'chalari-barpo qilinishi to'g'risida ko'rsatmalar berib o'tilgan [2]. Mamlakatimizda maktabgacha ta'limga oid keltirilgan ma'lumot va yangi qabul qilingan qarorlar hamda islohotlarni inobatga olgan holda va maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishida tarbiyachi-pedagoglarning ahamiyatini anglagan holda avvalo bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni zamonaviy talablar asosida yetuk kadr etib tarbiyalamog'imiz mamlakatimiz ta'lim tizimidagi muhim masalalardan biridir.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga bo'lgan qamrov qisqa yillar mobaynida katta suratlarda oshganligini ko'rishimiz mumkin ammo undagi ta'lim va tarbiya jarayoning asosiy ishtirokchisi bo'lmish tarbiyachi pedagoglarning ko'pgina qismi oliy ma'lumotga ega emasligi va kasbiy kompetentligi to'liq shakllanmaganligi, bola shaxsini chuqur anglab yetmaganliklari hamda tarbiyachi-pedagog sifatida ota-onalar bilan bola tarbiyasi borasida to'g'ri munasabatda bo'lishni, ularni ta'lim tarbiya jarayoniga uyg'unlashtirish ishlarini tashkil eta olmasliklari bois maktabgacha ta'limdagi ta'lim va tarbiya sifatida o'sish suratlarini ko'rish qiyin bo'lmoqda. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishish uchun bo'lajak va muqobil faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglarni sifatli ta'lim va tarbiya bilan ta'minlab, qayta o'qitib ularning kasbiy mahoratini yanada oshirib borish zarurdir. Bundan tashqari mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun har yili imtihon asosida qabul qilinayotgan talabalarning ko'pginasi umumta'lim maktabi bitiruvchilari ekanliklari va o'qish davomiyligi uch yil ekanligini hisobga olgan holda ularning maktabgacha ta'lim faoliyatida psixologik kompetentligini qisqa muddatda shakllantirish muhim

masala ekanligi ahamiyatlidir. Chunki bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglari yosh va hali ijtimoiylashuv jarayonida bo'lganliklari bilan birga bola shaxsini hurmat qilishi, tushunishi, uning tarbiyasiga individual xususiyatlarini hisobga olib yondasha olishi hamda tarbiyalanuvchilar ota-onalari bilan do'stona hamkorlik o'rnatish olishi va ularga ham farzand tarbiyasi bo'yicha muqobil ko'rsatmalar berib bora olishi kerak. Aksincha yosh tarbiyachi pedagoglarning ayrimlarida bunday psixologik kompetensiyalar shakllanmaganligi uchun maktabgacha ta'lim va ota-onalar o'rtasida hamda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi va bu esa ta'lim va tarbiya samaradorligining keskin pasayishi va ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan; tarbiyaching bolani shaxs sifatida qabul qila olmasligi, har bitta bolaning individulligini hisobga olmay mashg'ulot jarayonini tashkil etishi, bolani psixologik jihatdan tushunmasdan unga ta'sir o'tkazishga harakat qilishi, ota-onalar oldida kuchli hayajon bosishi, ular bilan muloqotda to'g'ri ko'rsatmalar bera olmasligi va o'z nutqini tushunarli yetkazib bera olmasligi va turli yuzaga kelgan muammoli holatlarda oqilona qaror qabul olmasligi va shu kabi boshqa holatlarni keltirishimiz mumkin. Natijada esa tarbiyachi-pedagogga bo'lgan hurmat va ishonch munosabatlarining ota-onalar tomonidan pasayishiga olib kelishi bilan birgalikda guruhdagi tarbiyalanuvchilar tomonidan ham tarbiyachining e'tirof etilmaslik holatlari yuzaga keladi. Natijada bunday tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayoni oqibatida maktabgacha ta'lim tizimi ko'plab jiddiy inqirozlarga yuz tutishi ehtimoli kattadir. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsining psixologik tayyorligi bevosita ta'lim va tarbiya sifati, bolaning rivojlanish jarayoniga hamda ota-onalar bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish uchun katta ta'sir ko'rsatadi va bugungi kun tarbiyachilaridan nafaqat pedagogik bilimlarga, balki bolaning psixologik holati, emotsional ehtiyojlari, individual xususiyatlarini anglab ularning ta'lim va tarbiyasida ota-onalarga ham bilim bera oladigan yuqori darajadagi psixologik kompetentlik talab etiladi[4].

Psixologik kompetentlik tushunchasi bu tarbiyachining bolaga individual yondashishi, tarbiyalanuvchining psixik rivojlanishini tushungan holda unga va uning ota-onasiga ham to'g'ri pedagogik ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir.

Psixologik kompetentlik bola psixologiyasi bo'yicha bilimlar, empatiya va emotsional intellekt, muloqot va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalari, stressga bardoshlilik va professional barqarorlik, oilaviy tarbiya, bola huquqlari va individual xususiyatlarini hurmat qilish va o'z-o'ziga baho berish kabi va shunga o'xshash tarkibiy qismlardan iborat bo'lib farzand tarbiyasiga oid kitoblarni o'qish ushbu komponentlarning shakllanishi uchun nazariy va amaliy asos bo'la oladi[5].

Hozirgi kunda oliy ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun kasbga yo'naltiruvchi turli maxsus mutaxassislik fanlari o'rgatiladi. Masalan bular ichida "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi", "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish", "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi", "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi",

“Maktabgacha ta’limda ota-onalar bilan hamkorlik texnologiyasi”, “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” va shunga o‘xshash fanlar bo‘lajak tarbiyachining psixologik kompetentligini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Shunday ekan aynan shu fanlar doirasida talabalarga bolalar tarbiyasi va psixologiyasiga oid adabiyotlarni o‘qitish ularning ish faoliyatiga osongina kirishib ketishi uchun zamin yarata oladi. Bundan tashqari har bir fanlarning 40-50%ni mustaqil ta’lim soatlari tashkil etadi va shu mustaqil ta’lim soatlari uchun topshiriq sifatida bosqichma bosqich fan mavzulariga mos bo‘lgan adabiyotlarni talabalarga o‘qitib uning natijasini tahlil qilib rag‘batlantirib borish ko‘plab ijobiy natijalarga olib keladi.

Birinchidan: Talabaning o‘qigan har bir kitobi uchun o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirish asosida unda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish oshib boradi;

Ikkinchidan: talaba kitobxonlik asosida bola psixologiyasini va uning individualligini misollar orqali tushunib, bolaning ichki olamini his qilib, kasbiy jihatdan rivojlanib boradi;

Uchinchidan: bo‘lajak tarbiyachida “men qanday tarbiyachi(man) bo‘la olaman”, “Qanday vaziyatlarda qanday psixologik yondashuvlarni qo‘llayman” kabi savollarga javob topishga va tarbiyachi kasbiy refleksiyaning rivojlantirishiga yordam beradi;

To‘rtinchidan: talaba bola ta’lim va tarbiyasiga oid ko‘plab bilimlar egallab uni bolalar ota-onasiga ham targ‘ib eta oladigan va turli yuzaga kelgan vaziyatlarda ularga to‘g‘ri ko‘rsatma bera oladigan pedagog maqomiga ham ega bo‘lib hamda o‘z oilasida ham farzandlari uchun ta’lim va tarbiya o‘chog‘i bo‘la oladilar;

Beshinchidan: yurtimizda keng miqyosda maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etilmagan chekka hududlarda tashkil etilayotgan mobil guruhlar (Aqilvoy avtobuslari)da faoliyat yuritadigan bo‘lajak tarbiyachilarning muhitga moslashuvi turli xil yoshdagi bolalar va ota-onalar bilan samarali faoliyat olib borishi jarayoniga moslashishi uchun uchun muhim ko‘nikma hisoblanadi.

Talabalarga bunday adabiyotlarni o‘qitishda bir necha ko‘rsatmalarga amal qilmog‘imiz lozim.

1. Talaba o‘zlashtirishi uchun mamlakatimiz mentalitetiga mos bo‘lgan adabiyotlarni tanlash kerak. Masalan mashhur turk pedagog-psixolog adabiyotshunoslari tomonidan yozilgan farzand tarbiyasiga oid kitoblar mazmuni aynan bizning mamlakatimiz ta’lim va tarbiya muhitiga mos tushadi. Bunday adabiyotlar mualliflariga misol qilib Adem Gunesh, Hadichai Kubroi Tongar, Ayshe Talay Ongan kabi bolalar pedagog-psixolog olimlarining kitoblarini keltirish mumkin va bundan tashqari boshqa ta’lim tizimi rivojlanishida oldinda bo‘lgan mamlakatlar Xitoy, Koreya, Finlandiya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya va shu kabi boshqa mamlakatlarning ham mamlakatimizdagi urf-odat va milliy qadriyatlarimizga mos keladigan tarbiyaviy kitoblari bilan ham tanishib borish joizdir.

2. Har bitta tanlangan adabiyot o‘tilayotgan fanga doir bo‘lishi va fan mazmunini yorqin ochib bera olishi kerak. Misol qilib turk adibi Adem Guneshning “Bola tarbiyasida 100 asosiy qoida – 0-6 yosh davri” kitobi maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” faniga mos keladi [3].

3. Har bitta adabiyot bo‘yicha o‘qituvchi samarali metodlar – rolli o‘yinlar, ma‘lum savollar jamlanmasi, muammoli vaziyatlar va holatlar aks etgan topshiriqlar ishlab chiqishi kerak;

4. Har bitta o‘qib tugatilgan adabiyotning kerakli jihatlarini o‘qituvchi va talabalar birgalikda seminar shaklida tahlil etib borishi kerak;

5. Har bir o‘qib tugatilgan adabiyot bo‘yicha eng ilg‘or talabalar muntazam o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilib borishi kerak bo‘ladi.

Tarbiyaga oid adabiyotlar bo‘lajak tarbiyachilarning psixologik kompetentligini shakllantirishda asosiy manba va ta‘sirchan vosita hisoblanadi[6].

Ushbu adabiyotlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Ularni tizimli o‘qitish bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy madaniyati, refleksiv fikrlashi, emotsional-intellektual salohiyati va ot-onalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu sababli, oliy ta‘lim jarayonida farzand tarbiyasiga oid adabiyotlarni muntazam o‘qitish va zamonaviy metodlar asosida o‘rgatish yuqori malakali tarbiyachi tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta‘lim va maktab ta‘limi sohasidagi islohotlar ijrosi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi // Xalq so‘zi. — 2024. — 10 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida. — Toshkent: O‘rda, 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son.
3. Gunesh A. Bola tarbiyasida 100 asosiy qoida (0–6 yosh davri) / Turk tilidan tarjima. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. — 240 b.
4. Tongar H.K. Baqirmaydigan onalar / Turk tilidan tarjima. — Toshkent: Factor Books, 2020. — 192 b.
5. G‘oziyev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). — Toshkent: O‘qituvchi, 1994. — 224 b.
6. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. — Toshkent: Ilm-ziyo, 2006. — 256 b.
7. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1993. — 264 b.
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 2005.
9. Ongan A.T. Erken çocukluk döneminde gelişim ve eğitim (0–6 yaş). — İstanbul: Nobel Akademik Yayıncılık, 2018.